



## Tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan bog`liqligi hususida

G`. Jo`rayev

O`zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar № 1 kafedrasi o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslik fanining nazariy jihatdan o`rganish, tilshunoslikning muhim hisusiyatlari borasida tasavvurga ega bo`lish, lingvistik hodisalar, til birliklari va ularning tizim sifatidagi qurilishi haqida fikr yritadi. Shuningdek, tilshunoslik fannini boshqa fanlar bilan uzviy bog`liqligi, dunyo tilshunos olimlarining tilga bergan ta`riflari haqidagi ma`lumotlar keltirilgan..

**Tayanch so`zlar:** nazariy tilshunoslik, ruhiy faoliyat, ichki mehanizm, ijtimoiy hodisa, sotsiolingvistik tasnif, sinxroniya, diaxroniya, predmet, tafakkur.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается теоритическое изучение науки о языкознании, имея преставление о важных особенностях языкознания, языковых явлениях, единицах языка и их построении как системы. Кроме того, представлены сведения о связи языкознания с другими науками и определения языка. данные мировыми лингвистами.

**Ключевые слова:** теоритическая лингвистика, психическая деятельность, внутренний механизм, социальное явление, социолингвистическая классификация, синхрония, диахрония, объект, мышление.

**Abstract:** In this article, theoretical study of the science of linguistics, having an idea about the important features of linguistics, linguistic phenomena, language units and their construction as a system is discussed. In addition, the information about the connection of the linguistics with other sciences and the definitions of language given by world linguists is presented.

**Key words:** theoretical linguistics, mental activity, internal mechanism, social phenomenon, sociolinguistics classification, synchrony, diachrony, object, thinking.

“Tilshunoslik nazariyasi” fani murakkab va ko`p qirrali, boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog`liq bo`lgan til haqidagi mustaqil va aniq fan bo`lib, tilshunoslik sohasining nazariy mavzularini yoritish, fan doirasida o`rganiladigan asosiy masalalarning mazmun - mundarijasini belgilaydi. Nazariy tilshunoslikning muhim xususiyatlari borasida tasavvur hosil qilish, asosiy lingvistik hodisalar, jarayonlar, til birliklari, til birliklarining tizim sifatidagi qurilishi haqida ma`lumot keltiradi. Til mohiyatini nazariy muammolar asosida tahlil qilish, tilning tabiati, ijtimoiy mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigani vazifasi, til va so`zlashuvchining ruhiy faoliyati, so`zlovchi va suhbatdoshning o`zaro munosabati, tilning kommunikativ xususiyatlari, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini, til va tafakkurning bir-biriga uzviy bog`liqligini, tilning belgili va belgisiz xususiyatlarini umumlashtirib, ilmiy xulosalar chiqaradi va shu asosda til qonuniyatlarini aniqlab beradi.

“Nazariy tilshunoslik masalalari” fanining maqsadi quyidagilardan iborat:

-lingvistikaning tabiati, mohiyati va predmetini belgilash;

obyektiv borliqdagi hodisalarga tilning munosabati, uning boshqa hodisalar ichida tutgan o`rnini o`rganish;

- tilning nutq va nutq faoliyati bilan munosabatini o`rganish;



## Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects

- til strukturasi, bu strukturani tashkil etgan birliklarning o'zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishlash qonuniyatlari kabi muhim masalalarni ilmiy o'rganish;

-til va jamiyat, tilning kishilik jamiyatidagi o'rni, tilning ijtimoiy muhitga ko'ra o'zgarish xususiyatlari, tillarning sotsiolingvistik tasnifi kabilarni o'rganish;

til va tafakkur, til va psixologiya, til va semiotika kabi tilga bog'liq masalalarni tadqiq etish;

-tildagi muammo va masalalarni sinxroniya va diaxroniya (ya'ni hozirgi va tarixiy holati)da ilmiy tadqiq etish;

- mavjud metod va metodologiyalardan magistrnlarni puxta xabardor etishdan iborat.

Tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan munosabati natijasida tutash fanlarning vujudga kelishi borasida so'z yuritsak, tilshunoslik mustaqil fan sohasi sifatida XIX asrdagina ajralib chiqdi. Lekin uning falsafa, psixologiya, mantiq, tarix, adabiyot fanlari bilan uzviy aloqadorligi saqlanib qoldi.

Tilshunoslikning mantiq fani bilan bog'liqligi. Ularning aloqadorlik tomoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog'lanadi. Chunki tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan til tafakkur bilan o'zaro munosabatda. Til kishilarning olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vositadir. Til va tafakkur o'zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o'rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o'rtasida ham ana shunday dialektik aloqaning bo'lishi tabiiy

Mantiq tafakkur shakllari, qonunlari va usullarini o'rganadi. U tushuncha, hukm shakllarini, xulosa chiqarish, isbot va rad etish holatlari orqali obyektiv voqelikning in'ikos etish jarayonida qanday bo'lish yo'llarini ko'rsatib, inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli bo'lishini ta'minlaydi. Shunday ekan, mantiq tilshunoslikning grammatika bo'limi bilan bevosita munosabatdadir. Chunki tushuncha so'z va so'z birikmalari orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi. Bu esa har bir savodli kishi uchun grammatikani bilish qancha zarur bo'lsa, mantiqning shakl va qonunlarini bilish ham shunchalik zarur. Shu bilan birga, mantiq va grammatika qanchalik o'zaro zich bog'lanmasin, o'zlariga xos xususiyatlarga ham ega. Mantiq shakllari tushuncha, hukm, xulosalar hamma xalqlar uchun umumiy bo'lsa, ularning turli tillarda ifodalanish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun har bir tilning boshqasidan farq qiladigan o'z grammatikalari mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki, mantiq bilan grammatika bir-biri bilan bog'liq, ular bir-birini to'ldiradi. Ayni paytda, o'z xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Tilshunoslik va tarix. Tilshunoslikning etnografiya bilan munosabati. Jamiyatda ro'y bergan har bir o'zgarish shu jamiyatning tilida o'zining ma'lum izini qoldiradi. Shuning uchun jamiyat tarixining muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar o'z o'rnini qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Ayni paytda, ma'lum lingvistik faktlarni tarixiy materiallarga suyanmasdan turib izohlash yetarli bo'lmaydi. Bu esa jamiyat tarixi bilan shu jamiyat tilining va ularni o'rganuvchi tarix fani bilan tilshunoslik fanining naqadar aloqador ekanini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda til ikki yo'nalishda o'rganiladi: statik (sinxron) holati va dinamik (diaxron) holati. Til taraqqiyotining muayyan bir davridagi holati sinxron holat sanaladi. Til sinxron holatda o'rganilganda, uning hozirgi holati tadqiqot obyekti bo'ladi. Diaxron o'rganishda esa til birliklarining tarixiy taraqqiyotiga e'tibor beriladi. Lekin sinxroniya bilan diaxroniya o'zaro aloqadadir. Sinxroniya diaxroniya zanjiridagi bir halqa sanaladi. Shuning uchun ko'p hollarda diaxroniyasiz tilning sinxron holatini tushuntirish qiyin bo'ladi.

Quyida dunyoning yetuk tilshunos olimlarining tilga berilgan ta'riflari bilan tanishib chiqamiz:

Nazariy tilshunoslikda tilning tafakkur, psixik faoliyat, ijtimoiy-sotsial institutlar, tabiat



hodisalari va boshqa belgili tizimlar bilan yaqinlashtiruvchi konsepsiyalarning sezilarli ta'sirga egaligi. Inson insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlashga muhtojdir, har bir insonning tabiatida boshqa bir kishi yoki ko'pchilik bilan fikrlashish, o'zaro lisoniy aloqa qilish xususiyati bor. (Abu Nasr Forobiy).

Til so'zlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimonidir. Shuning uchun til zamonning bir onidek, turg'un qismi kabi cheklanib qoladi. (A. R. Beruniy)

Ko'ngil mahzanining qulfi til va mahzanning kalitin so'z bil. (A.Navoiy).

Til aloqa vositasi sifatida ijtimoiy hodisadir va u kollektivning yutug'idir. Tildagi o'zgarish alohida shaxsga bog'lik emas. Til aloqa vazifasini bajaruvchi vosita sifatida murakkab ifoda vositasiga egadir. (A.Meye).

Tilning butun qudrati – uning xalq dilida va mehnat jarayonida yaratilib, boyib borishi bilan bog'liqdir (P.Qodirov).

Jonli til – aloqa qurolidir. Aloqa esa hamisha so'zlovchidan eshituvchining ehtiyojini hisobga olishni talab qiladi (P.Qodirov).

Til mohiyatan bitmas-tuganmas, cheksiz-chegarasiz ifoda imkoniyatlarining jamidir (N.Mahmudov).

Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim va tajribalarning to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi (N.Mahmudov).

Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgidir (N.Mahmudov).

Tilshunoslikning barcha tarmoqlari, yo'nahsh va bo'limlari tilni har tomonlama chuqur o'rganish bilan shug'ullanadi. Demak, tilshunoslik fanining asosiy predmeti murakkab, muhim ijtimoiy hodisa sanalmish til bo'lib, tilning barcha qirralari, belgi xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti shu fan tarmoqlari va sohalari tomonidan o'rganiladi. Insonning nutqiy faohiyati gapirish, eshitish, sezish va o'qish kabi murakkab jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar faqat tilshunoslikda emas, balki boshqa fanlarda ham o'rganiladi, Shunga ko'ra, inson tili mustaqil manba sifatida bir necha fanlarning predmetini tashkil etadi. Tilshunoslik til bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilganda boshqa fanlarning xulosalariga ham suyanadi va aksincha, barcha fanlar ham til materiallaridan foydalanadi. Bundan ko'nadiki, tilshunoslik deyarli barcha fanlar bilan aloqada, hamkorlikda ish olib boradi. Til falsafa, psixologiya (ruhshunoslik), sotsiologiya, mantiq (logika) kabi fanlar tomonidan ham o'rganiladi. Tilni o'rganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan o'z munosabati bor. Bu munosabat har bir fanning tilni qaysi tomoni yoki aspektini o'rganishi bilan belgilanadi va ushbu fanning predmetini tashkil etadi. Tilshunoslik, ayniqsa, falsafa bilan chambarchas bog'liqdir. O'tmishda tilshunoslik ham falsafa fanining bir tarmog'i bo'lgan, keyinchalik mustaqil fan maqomini olgan. Falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. U turli fanlar, jumladan, tilshunoslik uchun xarakterli bo'lgan tahlil tamoyillari va metodlarini tanlash hamda belgilashda yordam beradi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. N. ULUQOV "Tilshunoslik nazariyasi", Toshkent
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>
3. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12262-tilshunoslik-fanining-o-rganish-sohasi-va-mavzulari>